

Sulton Ali Mirzo



Sulton Ali Mirzo

(1483-1500)

(1498-1500)

1498-1500 yillarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan so'ngi temuriy hukmdor. **Sulton Mahmud Mirzoning** 3-o'g'li. Onasi – **Zuhra begim**. Otasining vafotidan so'ng Qarshi viloyati hokimi bo'lib, keyinchalik akasi **Boysung'urdan** Buxoroni (1497 yil dekabr), **Bobur** esa, Samarqandni tortib olgan. Bobur ota meros shahri Andijon dushman qo'liga o'tishi mumkinligi haqida xabar topib, beklaridan birini Samarqandda qoldirib, Andijon tomon yurgan. Bundan foydalangan Sulton Ali Mirzo Samarqandni ishg'ol qiladi (1498 yil fev.-mart). 1499 yilda Sulton Ali Mirzo bilan **Muhammad Mazid** tarxon orasida nizo vujudga keladi. Tarxonlar Movarounnahrda katta nufuzga ega edilar. **Mazid** tarxon Samarqand va uning atrofidagi mulklarni o'z o'g'illari, qarindosh-urug'lari va yaqin kishilari ixtiyoriga berib qo'ygan edi. Sulton Ali Mirzo taxtga muqim o'rnashib olgach, **Mazid** tarxonga qarshi siyosat yuritadi. Natijada **Mazid** tarxon Samarqanddan chiqib ketadi. Shunda Toshkent hokimi **Sulton Mahmudxon** jiyani **Xon Mirzoni** (Mirzoxon, Sulton Ali Mirzoning ukasi) mo'g'ul qo'shinlari bilan Samarqandni zabt etishga jo'natadi. Sulton Ali Mirzo Samarqand tashqarisida, Yoryayloqda bo'lgan jangda g'olib chiqadi. Onasi **Zuhra begimning** nodonligi tufayli yozilgan maktub sabab **Shayboniyxon** Samarqandni jangsiz egallaydi (1500). Sulton Ali Mirzo Qo'lba yalangligida qatl etiladi.

2023-10-30 00:13:03